

**AUTIZMGA EGA BO'LGAN BOLALAR RIVOJLANISHINING
O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Abdusadikova Turgunoy “*University of Management and Future Technologies*” universiteti 555-23 guruh talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlari va ta'lim jarayonidagi individual yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Autizmga ega bolalarning o'ziga xos tafakkur qilish, muloqot qilish va ijtimoiy muhitga moslashish jarayonlari tahlil qilinib, ularni ta'lim jarayonida qo'llab-quvvatlash strategiyalari bayon etilgan. Xususan, vizual yondashuvlar va strukturaviy ta'limning samaradorligi, shuningdek, muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish metodlari haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: autizm spektri buzilishi, autizmga ega bolalar, inklyuziv ta'lim, individual yondashuv, vizual yondashuv, strukturaviy ta'lim

Kirish. Zamonaviy jamiyatda ta'lim hamma uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashi lozim. Shu boisdan inklyuziv ta'lim tizimi turli imkoniyatlarga ega bolalar uchun ham mos muhit yaratishga intiladi. Autizm spektri buzilishi (ASB) bo'lgan bolalar ham ta'lim jarayonining muhim ishtirokchilari bo'lib, ular uchun moslashgan o'quv usullari va maxsus pedagogik yondashuvlar talab etiladi. Autizmga ega bolalar rivojlanish jarayoni odatiy bolalarnikidan farq qiladi, bu esa ularning o'qitish jarayonida maxsus e'tibor talab qilishini anglatadi. Autizm spektri buzilishi asosan bola ijtimoiy munosabat, kommunikatsiya va xatti-harakatlarida o'ziga xos xususiyatlar bilan namoyon bo'ladi. Bunday bolalar odatda boshqalar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, ba'zan og'zaki nutqdan foydalanmaydilar yoki cheklangan qiziqishlarga ega bo'ladilar. Ba'zi hollarda ular yuqori intellektual qobiliyatga ega bo'lishlari mumkin, biroq ijtimoiy o'zaro ta'sir va sezgirlik jihatidan ancha nozik bo'ladilar. Shu sababli, autizmga ega bolalarni o'qitishda ularning rivojlanish xususiyatlarini to'g'ri tushunish muhimdir. Ularning ehtiyojlariga mos

keladigan ta'lim uslublari, moslashtirilgan dasturlar va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratilishi ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Ushbu maqolada autizmga ega bolalarning rivojlanish jarayoni, ularning o'ziga xos xususiyatlari va ta'lim jarayonida qo'llanilishi lozim bo'lgan pedagogik usullar haqida batafsil fikr yuritiladi.

Autizmga ega bolalarning rivojlanish xususiyatlari. Autizm spektri buzilishi (ASB) bo'lgan bolalarning rivojlanishi odatiy bolalarnikidan sezilarli darajada farq qiladi. Ularning o'sish jarayonida ijtimoiy muloqot, nutq va hissiy jihatdan o'ziga xos xususiyatlar namoyon bo'ladi. Ushbu farqlar bolalarning hayotiga, ta'lim jarayoniga va atrofdagilar bilan munosabatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, autizmga ega bolalar ijtimoiy munosabatlarda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ular ko'pincha boshqalar bilan o'zaro ta'sir qilishga qiziqish bildirmaydilar yoki juda cheklangan doirada muloqot qilishadi. Masalan, ota-onasi yoki o'qituvchisi chaqirganida javob bermaslik, ko'z bilan aloqa qilishdan qochish, tanishlarga ham sovuqqonlik bilan munosabatda bo'lish kabi holatlar kuzatiladi. Ba'zi hollarda ular yolg'izlikni afzal ko'radilar va atrofdagi voqealarga deyarli e'tibor bermaydilar. Nutq va kommunikatsiya qobiliyatlarida ham muhim o'zgarishlar kuzatiladi. Ba'zi bolalar umuman gapirmasligi mumkin, boshqalari esa cheklangan so'z boyligiga ega bo'ladi yoki nutqdan faqatgina ma'lum vaziyatlarda foydalanadilar. Masalan, ular boshqalarning gaplarini aynan takrorlash (echolaliya) yoki gapni tushunilmaydigan tarzda ishlatish kabi holatlarga moyil bo'ladilar. Shuningdek, autizmga ega bolalar mavhum tushunchalarni tushunishda qiynaladilar va faqat aniq, real voqealar haqida gaplashishni afzal ko'radilar. Sensor sezgirlik autizm bilan bog'liq bo'lgan eng muhim xususiyatlardan biridir. Bu bolalar tovush, yorug'lik, hid yoki ta'sirga nisbatan ortiqcha sezgir yoki aksincha, kam sezgir bo'lishlari mumkin. Masalan, juda baland ovoz ularda bezovtalik va stress uyg'otishi, ba'zi matolar yoki taomlarning tuzilishi esa noqulaylik tug'dirishi mumkin. Ayrim hollarda, ular ma'lum narsalar yoki harakatlarga haddan tashqari bog'lanib qolishadi. Masalan, faqat bir turdagi o'yinchoq bilan o'ynash, kun tartibining o'zgarishiga keskin munosabat bildirish yoki bir xil harakatlarni takrorlash kabi odatlar kuzatiladi. Bundan tashqari, autizmga ega bolalar xatti-harakatlarida takroriylik va qat'iy tartibga rioya qilishga intilish seziladi. Ular odatiy tartib

buzilganda yoki rejalashtirilmagan o'zgarishlar yuz berganda xavotirlanishlari va stress holatiga tushishlari mumkin. Misol uchun, agar bola har kuni ma'lum bir yo'nalish bo'ylab yurishga odatlangan bo'lsa, ushbu yo'nalish o'zgarganda u bezovta bo'lishi yoki injiqlik qilishi mumkin. Shu sababli, ularga o'zgarishlarni oldindan tushuntirish va tayyorlash muhim hisoblanadi.

Aksariyat autizmga ega bolalarda ma'lum bir sohaga bo'lgan qiziqish kuchli namoyon bo'ladi. Ular o'zlarini qiziqtirgan mavzuda juda ko'p ma'lumot to'plashlari, aniq faktlarni eslab qolishlari va shu sohaga juda ko'p vaqt ajratishlari mumkin. Masalan, ba'zi bolalar poyezdlar, astronomiya yoki matematika kabi mavzularga g'ayrioddiy darajada qiziqish bildiradilar va ularga oid murakkab ma'lumotlarni osonlik bilan yodda saqlab qoladilar. Autizmga ega bolalarning hissiy rivojlanishi ham o'ziga xos bo'lib, ular hissiyotlarni ifodalash va tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Ular o'zlarining yoki boshqalarning his-tuyg'ularini anglashda qiynaladilar, bu esa ularning ijtimoiy muloqotda muammolarga duch kelishiga sabab bo'ladi. Masalan, ba'zi bolalar kulgi yoki yig'ining ma'nosini tushunmasligi yoki noto'g'ri talqin qilishi mumkin. Ular o'z his-tuyg'ularini aniq ifodalashda ham muammolarga duch keladilar va ba'zan stressni agressiv yoki o'ziga zarar yetkazuvchi harakatlar bilan ifoda etadilar.

Autizmga ega bolalarni ta'lim jarayonida qo'llab-quvvatlash. Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar ta'lim jarayonida o'ziga xos ehtiyojlarga ega bo'lib, ularning o'qitilishida individual yondashuv asosiy rol o'ynaydi. Ularning aqliy qobiliyatlari, diqqatni jamlash darajasi, sensor sezgirliigi va muloqot qilish uslublari boshqalardan farq qilishi mumkin. Shu sababli, ularning ta'lim jarayonida moslashuvchan va maxsus yondashuv talab etiladi. Har bir bola o'ziga xos bo'lgani uchun ularning o'rganish uslubi ham individual tarzda ishlab chiqilishi lozim. Birinchi navbatda, autizmga ega bolalar uchun shaxsiylashtirilgan ta'lim rejasi (IEP- Individual Education Plan) ishlab chiqilishi zarur. Bu rejada bolaning kuchli va zaif tomonlari, o'quv jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar va rivojlanish maqsadlari belgilab beriladi. O'qituvchilar va mutaxassislar ushbu rejaga tayangan holda ishlaydi va bolaning o'qish jarayonida oldinga siljishini kuzatib borishadi. Ushbu yondashuv

bolaning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirish va rivojlanishini samarali boshqarish imkonini beradi. Autizm spektriga ega bolalar turli o'rganish usullariga ega bo'lishi mumkin. Ularning ayrimlari vizual materiallar yordamida yaxshiroq o'rganadi, ba'zilar esa tajriba asosida bilimlarni mustahkamlaydi. Shu boisdan, ta'lim jarayonida turli xil metodlardan foydalanish muhim sanaladi. Masalan, tasvirlar, jadvallar, diagrammalar va belgilar kabi ko'rgazmali materiallar ularning tushunchalarni yaxshiroq qabul qilishiga yordam beradi. Ayrim bolalar esa, harakat va o'z tajribasi orqali o'rganishni afzal ko'radi. Autizmga ega bolalar uchun ta'lim muhiti ham muhim omil hisoblanadi. Ular ortiqcha shovqin, yorqin yorug'lik yoki haddan tashqari bezaklangan muhitdan ta'sirlanishi mumkin. Shu sababli, sinf xonalarini imkon qadar osoyishta va aniq tashkil etish lozim. Tartibli va oldindan rejalashtirilgan muhit bolalarga o'zlarini xavfsiz his qilish imkonini beradi va diqqatni jamlashga yordam beradi. Maktab muhitida ularning o'zlarini erkin his qilishlari uchun ijtimoiy muloqotni qo'llab-quvvatlash ham muhimdir.

Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar aniq jadval asosida harakat qilishga o'rgangan bo'lishadi. Ular rejalashtirilmagan o'zgarishlarga nisbatan sezgir bo'lib, bu ularda stress yoki xavotirni oshirishi mumkin. Shu bois, darslar oldindan rejalashtirilib, aniq jadval asosida olib borilishi kerak. Agar jadvalda o'zgarish yuz bersa, bu haqda bolaga oldindan tushuntirish berish muhimdir. Ularga qadam-baqadam tushuntirilgan topshiriqlar berilsa, ularni bajarish osonroq kechadi. Ta'lim jarayonining samarali bo'lishi uchun o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Autizmga ega bolalar bilan shug'ullanishda ota-onalar ham faol ishtirok etishi, uyda va maktabda bir xil ta'lim metodlarini qo'llashlari lozim. Ota-onalar o'z farzandlarining ehtiyojlarini o'qituvchilarga tushuntirib berishlari va bolaning rivojlanishini kuzatib borishlari zarur. Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarning ta'lim jarayoni murakkab bo'lsa-da, to'g'ri yondashuv va moslashtirilgan o'quv uslublari orqali ularning potensialidan to'liq foydalanish mumkin. Ularning o'ziga xos ehtiyojlarini tushunish va moslashuvchan metodlar orqali ularni qo'llab-quvvatlash orqali ularning ta'lim olish jarayoni samarali bo'lishiga erishish mumkin.

Vizual yondashuvlar va strukturaviy ta'lim hamda muloqot va ijtimoiy

ko'nikmalarni rivojlantirish. Autizm spektri buzilishi (ASB) bo'lgan bolalar uchun ta'lim jarayonida vizual yondashuv va strukturaviy ta'lim muhim o'rin tutadi. Ular og'zaki tushuntirishlardan ko'ra, vizual materiallar orqali o'rganishni yaxshiroq qabul qiladilar. Bundan tashqari, ularning muloqot va ijtimoiy ko'nikmalari odatda rivojlanishda ortda qolishi mumkin, shu sababli ularni rivojlantirish uchun maxsus strategiyalar va usullar qo'llaniladi. Vizual yondashuv autizmga ega bolalar uchun axborotni tushunarli qilishga yordam beradi. Bunday bolalar mantiqiy va vizual tartib bilan ishlashni yaxshi ko'radilar, shuning uchun ularga kundalik hayotda va ta'lim jarayonida vizual materiallardan keng foydalanish kerak. Masalan, vizual jadval va tasvirlangan rejalashtirish bolalarga qaysi faoliyat qanday tartibda bajarilishini tushunishga yordam beradi. Masalan, ertalab turish, nonushta qilish, maktabga borish, dars tayyorlash kabi harakatlar rasmlar yoki piktogrammalar orqali ifodalanishi mumkin. Bu nafaqat ularga mustaqil ravishda harakat qilishni o'rgatadi, balki ularning tashqi muhitga moslashuvini ham osonlashtiradi. Bundan tashqari, strukturaviy ta'lim autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar uchun juda muhimdir. Bunday bolalar aniq tartib va strukturaga ehtiyoj sezadilar, chunki ularning kutilmagan o'zgarishlarga bo'lgan moslashuvchanligi past bo'lishi mumkin. Shu sababli, ularning o'rganish muhitini aniq tuzilma asosida tashkil qilish kerak. Masalan, sinf yoki uy sharoitida har bir faoliyat uchun alohida joy ajratish tavsiya etiladi: dars o'qish burchagi, o'yin burchagi, muloqot burchagi kabi hududlar bo'lsa, bola qayerda nima qilish kerakligini oldindan bilib, tartibsizlik yoki chalg'ishdan saqlanishi mumkin. Shuningdek, autizmga ega bolalar uchun piktogrammalar va rasmlar yordamida muloqotni tushunarli qilish mumkin. Masalan, ular qandaydir so'zni yoki istaklarini ifodalashda qiynalishlari mumkin, shuning uchun ularga turli xil rasmlar belgilardan foydalanib, o'z fikrlarini ifodalashga o'rgatish mumkin. Bu yondashuv ularga suhbat qurishda, tushunishni oshirishda va jamiyat bilan bog'lanishda yordam beradi. Autizmga ega bolalar odatda ijtimoiy muhitda o'zlarini qanday tutishni bilmaydilar, chunki ular muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shu sababli, ularga ijtimoiy vaziyatlarni tushunish va ularga moslashish bo'yicha treninglar o'tkazish foydali bo'ladi. Masalan, bolaga qanday salomlashish, qanday qilib navbat

kutish, do'stlari bilan qanday muomala qilish kerakligini tushuntirish uchun vizual hikoyalar yoki rolli o'yinlardan foydalanish mumkin. Masalan, "do'st bilan qanday gaplashish kerak?" mavzusida oddiy rasmlar hikoyalar orqali bola suhbat davomida qanday javob berishni o'rganishi mumkin. Muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ularga PECS (Picture Exchange Communication System) kabi maxsus tizimlardan foydalanish mumkin. Bu tizim autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar uchun rasmlar orqali muloqot qilish imkonini beradi. Masalan, bola o'z istaklarini rasm orqali tushuntirishi mumkin: agar u suv ichmoqchi bo'lsa, suv rasmini ko'rsatishi mumkin. Bu usul bola va atrofdagilar o'rtasidagi muloqotni ancha osonlashtiradi. Shuningdek, autizmga ega bolalar uchun ijtimoiy hikoyalar usuli ham qo'llaniladi. Bunda ularga turli xil ijtimoiy vaziyatlar tasvirlangan qisqa hikoyalar o'qib beriladi. Masalan, "Do'stim bilan qanday gaplashish kerak?", "Do'konda qanday xarid qilish kerak?" kabi mavzular bo'yicha maxsus vizual hikoyalar orqali ularga real hayotiy vaziyatlar tushuntiriladi. Bu usul bolalarning ijtimoiy xatti-harakatlarini shakllantirishga va tushunishga yordam beradi. Muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda eng muhim jihatlardan biri sabr va doimiy mashg'ulotlardir. Autizmga ega bolalar ijtimoiy qoidalarini tezda o'zlashtira olmaydilar, shu sababli ularga asta-sekin tushuntirish, qadam-baqadam muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish muhimdir. Buning uchun o'yin terapiyalari, guruh mashg'ulotlari va muloqotga yo'naltirilgan maxsus mashqlar qo'llaniladi. Umuman aytganda, vizual yondashuv va strukturaviy ta'lim autizmga ega bolalar uchun tushunarli va samarali o'qitish metodidir. Bu usullar ularning kundalik hayotga moslashishini osonlashtiradi, mustaqillikni oshiradi va stressni kamaytiradi. Shu bilan birga, muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish ularning jamiyatga moslashishiga yordam beradi. Maxsus treninglar, vizual vositalar va strukturalangan ta'lim orqali bu bolalarga ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli ishtirok etish imkoniyatini yaratish mumkin.

Xulosa. Autizm spektri buzilishi (ASB) bo'lgan bolalar rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, ularning tafakkur qilish, muloqot qilish va ijtimoiy muhitga moslashish jarayonlari odatiy bolalarnikidan farq qiladi. Shu sababli, bunday bolalarning ta'lim jarayonida individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. Ularning

o'rganish jarayonini samarali tashkil qilish uchun vizual yondashuvlar, strukturaviy ta'lim va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish usullaridan foydalanish zarur. Vizual yondashuv va strukturaviy ta'lim autizmga ega bolalarning tushunishini osonlashtirish, ularga kun tartibini belgilab berish va mustaqillikni oshirishga yordam beradi. Aniq rejalashtirilgan muhit va vizual materiallar yordamida ularning o'rganish jarayoni barqaror va samarali bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarning jamiyatga moslashuvi uchun muhim hisoblanadi. Maxsus metodlar, jumladan, PECS tizimi, ijtimoiy hikoyalar, vizual rejalashtirish va o'yin terapiyalari orqali bolalarga ijtimoiy vaziyatlarda qanday harakat qilishni tushuntirish mumkin. Ushbu usullar ularning boshqalar bilan bog'lanish, o'z fikrlarini ifodalash va ijtimoiy muhitda o'zini qulay his qilishiga yordam beradi. Umuman olganda, inklyuziv ta'lim tizimida autizmga ega bolalar uchun maxsus yondashuvlarni qo'llash ularning rivojlanishi va jamiyatga integratsiyasida muhim rol o'ynaydi. Ularning o'ziga xos ehtiyojlarini inobatga olib, moslashuvchan ta'lim usullarini joriy etish orqali biz ularning kelajagini yanada yorqinroq qilishimiz mumkin. Shu sababli, jamiyat, o'qituvchilar va ota-onalar hamkorlikda harakat qilib, autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarning salohiyatini to'laqonli rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Хайдаров С. (2025). Оилаларда фарзанд тарбиясига рухий таъсир ўтказиш. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
2. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
3. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
4. Хайдаров, С. (2023). Педагогик фаолиятда о'қитувчи о'зida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67.

5. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
6. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
7. March, Karen, and Charlene Miall. "Introduction: Adoption as a family form." Family Relations (2000): 359-362.
8. Grotevant, Harold D., and Jennifer M. McDermott. "Adoption: Biological and social processes linked to adaptation." Annual review of psychology 65.1 (2014): 235-265.
9. Neil, Elsbeth. "Making sense of adoption: Integration and differentiation from the perspective of adopted children in middle childhood." Children and Youth Services Review 34.2 (2012): 409-416.
10. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
11. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.